Toshkent shahar statistika boshqarmasi

# Toshkent shahrida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2022-yil
yanvar oyida



Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi – milliy daromadlarni oshishini ta’minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta’minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste’mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo‘sh vaqt samaradorligini oshiradi.



**Xizmatlar sohasi** — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yil yanvar oyida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **9 182,8** mlrd. so‘mga yetdi. Uning nominal hajmi **2 281,7** mlrd. so‘mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati **125,6 %** ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari
*(2022-yil yanvar oyida)*



*2022-yil yanvar* *Dastlabki ma'lumotlar*

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari *(2022-yil yanvar oyida)* | Hajmi, mlrd. so'm | 2021-yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da |
|---|---|---|
| Xizmatlar jami | **9 182,8** | **125,6** |
| *shu jumladan:* | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 880,3 | 137,0 |
| Moliyaviy xizmatlar | 3 102,1 | 136,8 |
| Transport xizmatlari | 876,0 | 129,7 |
| *shu jumladan:* avtotransport xizmatlari | 537,0 | 119,5 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 275,3 | 110,8 |
| Savdo xizmatlari | 2 095,5 | 115,0 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 336,8 | 117,5 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 508,9 | 165,6 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 170,0 | 93,8 |
| Ijara xizmatlari | 124,5 | 90,5 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 51,3 | 106,6 |
| Shaxsiy xizmatlar | 108,6 | 86,1 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 219,0 | 101,4 |
| Boshqa xizmatlar | 434,6 | 112,3 |

*2022-yil yanvar* *Dastlabki ma'lumotlar*

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tuzilmasi

## Eng yuqori ko'rsatkich

- Moliyaviy xizmatlar — 33,7 %
- Savdo xizmatlari — 22,8 %
- Aloqa va axborotlash - tirish xizmatlari — 9,6 %
- Transport xizmatlari — 9,5 %
- Ta'lim sohasidagi xizmatlar — 5,5 %
- Boshqa xizmatlar — 4,7 %
- Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar — 3,7 %

## Eng past ko'rsatkich

- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar — 3,0 %
- Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar — 2,4 %
- Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar — 1,9 %
- Ijara xizmatlari — 1,4 %
- Shaxsiy xizmatlar — 1,2%
- Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar — 0,6 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tuzilmasida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. 2022-yil yanvar oyida ularning ulushi 33,7 % ni tashkil etdi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar hajmida biroz o‘sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **0,6** % ga yetgan.

***Taqqoslash uchun:*** 2022-yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmda **32,7** % ni tashkil etdi. 2021-yilning shu davrida kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo‘lgan – **0,6** %.

*2022-yil yanvar* *Dastlabki ma’lumotlar*

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur‘atlari taqqoslanishi, % da



*2022-yil yanvar* *Dastlabki ma’lumotlar*

**Savdo** – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste’mol sohasiga o‘tishini ta’minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma’lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste’molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo‘linadi.

2022-yil yanvar oyida, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **15,0** % ni tashkil etdi, bu esa **2 095,5** mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.

***Taqqoslash uchun:*** 2021-yil yanvar oyida ularning hajmi **1 650,4** mlrd. so‘mga yoki umumiy hajmining **3,4** % iga to‘g‘ri kelgan.

## Savdo xizmatlari

**2021 y. yanvar**

**Xizmatlar hajmi**
**2 095,5 mlrd. so‘m**

**O‘sish sur’ati**
**115,0 %**

**Ulushi**
**22,8 %**




**2021 y. yanvar–avgust**

**Xizmatlar hajmi**
**1 650,4 mlrd. so‘m**

**O‘sish sur’ati**
**103,4 %**

**Ulushi**
**23,9 %**

2022-yil yanvar oyida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb yarim qismini, aniqrog'i 22,8 % ini tashkil etdi.

## Savdo xizmatlari tuzilmasi

*(2022-yil yanvar oyida)*

**Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar** — **8,5 %**



**Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo xizmatlari** — **44,5 %**



**Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)** — **47,0 %**



***Taqqoslash uchun:*** 2021-yil yanvar oyida chakana savdo ulushi 51,4 % ga yetdi.

**2022-yil yanvar** **Dastlabki ma'lumotlar**

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar

*(2022-yil yanvar oyida)*



2022-yil yanvar–avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **3 102,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2021-yil yanvar–avgust oylarida ularning hajmi **2 259,1** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2022-yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **33,7** % ni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2021-yil yanvar oyida ularning ulushi **33,8** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **842,9** ml rd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022-yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **136,8** % ni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2021-yil yanvar oyida ularning o'sish sur'ati **125,1** % ga yetgan.

**2022-yil yanvar** ***Dastlabki ma'lumotlar***

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **89,9** % ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **6,8** % oralig'ida qayd etildi.

## Moliyaviy xizmatlar tuzilmasi

*(2022-yil yanvar oyida)*




***Taqqoslash uchun:*** 2021-yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **89,9** % ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **6,8 %** ga to'g'ri kelgan.

*2022-yil yanvar* | *Dastlabki ma’lumotlar*

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta’sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

| 2021-y. yanvar | | 2022-y. yanvar |
|---|---|---|
| 880,3 мlrd. so‘m | Xizmatlar hajmi | 633,6 мlrd. so‘m |
| 137,0 % | O‘sish sur’ati | 113,2 % |
| 9,6 % | Jami hajmdagi ulushi | 9,2% |

**Hajmning o‘sishi**

**246,8 mlrd. so‘mga**

***2022-yil yanvar*** ***Dastlabki ma'lumotlar***

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2022-yil yanvar oyida ularning ulushi **53,7** % ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi




***Taqqoslash uchun:*** 2021-yil yanvar oyida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **58,0**% ga yetgan.

*2021-yil yanvar* *Dastlabki ma'lumotlar*

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti – kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar

| 2021-y. yanvar | | 2022-y. yanvar |
|---|---|---|
| **268,3 mlrd. so'm** | **Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** | **508,9 mlrd. so'm** |
| **110,1 %** | **O'sish sur'atlari, % da** | **165,5 %** |



2022-yil yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **508,9** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **5,5** % ni tashkil etdi. 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **240,6** % ni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2021-yilning yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 268,3 mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2021-yilga nisbatan o'sish sur'ati 110,1 % qayd etilgan.

*2022-yil yanvar* *Dastlabki ma’lumotlar*

**Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar hajmi** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha qo‘yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o‘z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo‘yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o‘z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar



| | 2020-y. yanvar | 2021-y. |
|---|---|---|
| Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m | 217,1 | 275,3 |
| O‘sish sur’ati, % da | 102,3 | 110,8 |



2022-yil yanvar oyiga nisbatan yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi **275,3** mlrd. so‘mga ortdi.

## Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tuzilmasi

**84,1 %**

**2022-y. yanvar**

**15,9 %**



**18,3%**

**81,7 %**

**2021-y. yanvar**

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar**

**Yashash bo‘yicha xizmatlar**

2022-yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlarning ulushi **84,1 %** bilan ustunlik qildi.

***Taqqoslash uchun:*** 2022-yil yanvar oyida ularning ulushi **81,7** % ni tashkil etgan.

*2021-yil yanvar–avgust* *Dastlabki ma’lumotlar*

**Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** – sog‘liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tibbiyot yonalishidagi tashkilot va korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste’mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya xizmatlari tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

yanvar

| 2021-y. | | 2022-y. |
|---|---|---|
| 158,2 mlrd. so‘m | Xizmatlar hajmi | 170,0 mlrd. so‘m |
| 95,5 % | O‘sish sur’ati | 93,8 % |
| 2,3 % | Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi | 1,9 % |





*2021-yil yanvar–avgust*

*Dastlabki ma'lumotlar*

Zamonaviy O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog‘liqdir.

## Tumanlar kesimida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tuzilmasi, % da

*(2021-yil yanvar–avgust oylarida)*




2022-yil yanvar oyida ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi eng katta ulush – **14,7 %** (2021-yil yanvar oylarida – **14,2** %)ni Yunusobod tumani tashkil etdi. Xizmat ko‘rsatish sohasining eng past ko‘rsatkichlari Yangihayot tumanida – **1,3** % (2020-yil yanvar–avgust oylarida **– 1,1** %) qayd etildi.

**2022-yil yanvarst** *Dastlabki ma’lumotlar*

| Tumanlar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari *(2022-yil yanvar oyida* | Hajmi, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da | |
|---|---|---|---|
| | | 2022-y. | 2021-y. |
| **Toshkent shahrida** | 9182,8 | 125,6 | 110,5 |
| *tumanlar:* | | | |
| Bektemir | 340,0 | 111,2 | 107,4 |
| Mirzo Ulug‘bek | 924,3 | 138,5 | 109,0 |
| Mirobod | 1079,6 | 134,7 | 105,7 |
| Olmazor | 763,9 | 132,4 | 117,2 |
| Sirg‘ali | 548,4 | 121,2 | 93,9 |
| Uchtepa | 562,4 | 116,5 | 111,3 |
| Chilonzor | 1027,5 | 112,6 | 115,2 |
| Shayxontohur | 1066,4 | 124,2 | 120,7 |
| Yunusobod | 1349,0 | 129,8 | 108,1 |
| Yakkasaroy | 752,2 | 127,6 | 107,7 |
| Yangihayot | 122,1 | 156,5 | 92,9 |
| Yashnobod | 646,9 | 134,7 | 115,4 |

***2022-yil yanvar*** ***Dastlabki ma’lumotlar***

**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug‘urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

## Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida 2022-yil 1-yanvar holatiga ma’lumot

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



**Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni:** 79 522 birlik

**2021-yilning mos davrida xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni:** 67 927 birlik



**2021-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’atlari:** 74,9 %

**Ularning umumiy sonidagi ulushi:** 74,3 %



***2022-yil yanvar*** ***Dastlabki ma’lumotlar***

2022-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **74,9** %, sanoatda **15,8** %, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarida **1,0** % ga yetdi. Qurilish sohasida **8,3** % ga to‘g‘ri keladi.

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 2022-yil 1-yanvar holatiga tuzilmasi, % da

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*




***Taqqoslash uchun:*** 2022-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **74,3** % ni, sanoatda **16,7** % ni, qurilishda **8,1** % ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarida **1,0** % ni tashkil etgan.

*2022-yil yanvar* *Dastlabki ma’lumotlar*

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo‘lagiga aylandi, ko‘plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlar sohasini rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta’minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



40,1 %

2022-yil yanvar oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **40,1** % ni tashkil etdi.

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining 2022-yil 1-yanvar holatiga ulushi, % da

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*

1- yanvar holatiga




2022-yilning 1-avgust holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **72,0**% ga to‘g‘ri keldi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo‘limi**
**тel.: 71-203-88-15**